

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERISTETI**

“MOLIYA” KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 336.1:36 (575.1)

TURSUNOV ZOHID XO‘JA ORIFOVICH

**XALQARO VALYUTA JAMG‘ARMASINING
TAVSIYALARIGA ASOSAN O‘ZBEKISTONDA PENSIYA
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**70310102 – “Davlat moliyasi va xalqaro moliya”
magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan**

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar: i.f.n., dots. Z.Shomansurova

TOSHKENT-2023

Magistrlik dissertatsiya ishi "Moliya" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.


" 9 " - sonli bayonnoma " 25 " aprel 2023 -y.

Kafedra mudiri: DcS., dots. X.Xudoykulov



" " 05.2023


Ilmiy rahbar: i.f.n., dots. Z.Shomansurova



" " 05.2023

Tinglovchi:

Z.Tursunov



" " 05.2023

Dissertatsiya "Moliya va buxgalteriya hisobi" fakultetida 2023 – yil " 25 " may

No MBF-01/17 raqami bilan ro'yxatga olingan.

ANNOTATSIYA

Pensiya tizimini isloh qilish har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash jarayonidagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli mazkur tizim faoliyatini takomillashtirish jarayonida xalqaro darajadagi umumiy standart va me'zonlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Shu sababli mazkur tadqiqot yo'nalishi doirasida atroflicha tadqiqot izlanishini amalga oshirdik.

Tadqiqot jarayonida pensiya ta'minoti tizimining rivojlangan mamlakatlar amaliyoti, O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining joriy holati va uning tendensiyalari tahlil qilingan, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga to'langan ijtimoiy to'lovlarga muvofiq ravishda pensiya darajasini belgilash mexanizmi asoslangan.

Xalqaro Valyuta Jamg'armasining tavsiyalariga asosan O'zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish orqali aholini ijtimoiy himoya qilish va moddiy qo'llab-quvvatlashga doir xulosa, taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqdik.

Kalit so'zlar: pensiya tizimi, pensiya ta'minoti, ijtimoiy himoya, aholini moddiy qo'llab-quvvatlash, pensiya darajasi, ijtimoiy to'lov.

ABSTRACT

The reform of the pension system is one of the priority tasks in the process of ensuring the socio-economic development of every country. Therefore, in the process of improving the operation of this system, it is appropriate to pay attention to the general standards and criteria of the international level. Therefore, within the framework of this research, we have carried out a comprehensive research search.

In the course of research, the practice of the pension system in developed countries, the current state of the pension system in the Republic of Uzbekistan and its trends were analyzed, and the mechanism for setting the pension level in accordance with the social payments paid to the extra-budgetary Pension Fund was based.

Based on the recommendations of the International Monetary Fund, we have developed conclusions, proposals and practical recommendations on social protection and material support of the population by improving the pension system in Uzbekistan.

Key words: pension system, pension provision, social protection, material support of the population, pension level, social payment.

MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	6
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	7
Keltirilgan qisqartmalar.....	8
I BOB. KIRISH.....	9
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	10
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	12
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	12
1.4. Tadqiqot obyekti va predmeti.....	13
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	13
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	14
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	15
2.1. Kirish.....	15
2.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	15
2.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	17
2.4. Xulosa.....	28
III BOB. METODOLOGIYA.....	29
3.1. Tadqiqot dizayni.....	29
3.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni.....	29
3.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	30
3.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar.....	32
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.	32
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	33
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	34
4.1. Pensiya ta'minoti tizimining rivojlangan mamlakatlar amaliyoti, O'zbekistondagi tahlili va prognozlar.....	34
4.2. O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining joriy holati va uning tendensiyalari tahlili.....	40
4.3. Tahlildan olingan natijalar sharhi.....	52
V BOB. XULOSA.....	54
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha tavsifi.....	54
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari.....	55
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar.....	56
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	58

I BOB. KIRISH

Hozirgi paytda pensiya ta'minotini takomillashtirish dunyodagi eng global muammolardan biri hisoblanadi. Pensiya tizimlarini takomillashtirish to'g'risidagi xalqaro darajadagi muhokamalar Jahon banki tomonidan 1994-yilda nashr etilgan, aholining qarib borishi bilan bog'liq pensiya inqiroziga bag'ishlangan hisobotidan boshlangan. Ma'ruzada pensionerlarning kutilayotgan umr ko'rish davomiyligining uzayishi bilan bog'liq holda aksariyat mamlakatlarda mablag'larning qat'iy taqsimlashning "avlodlar birdamligi" tamoyillariga asoslangan pensiya tizimlarida taqchillik yuzaga kelishi natijasida ko'plab mamlakatlarda ushbu muammoni ijobiy hal etishga alohida e'tibor qaratilayotgani ta'kidlandi. Pensiya tizimlarini isloh etishdan maqsad pensionerning minimal turmush darajasini ta'minlay oladigan minimal pensiyani joriy etish, mehnat faoliyati davomida to'langan badallar va pensiya miqdori o'rtasida bevosita bog'liqlikni ta'minlash, pensiya to'lovlarini moliyalashtirish manbalarini tabaqalashtirishdan iborat.

Jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan moliyaviy-iqtisodiy jarayonlarning globallasuvi va integratsiyasi mamlakatimiz iqtisodiyotida sezilarli ta'sirini ko'rsatib, sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishga turtki bo'ldi. Bugungi kunda Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning yanada chuqurlashuvi, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi manzilliligini kuchaytirish, mavjud pensiya tizimini moliyalashtirish amaliyotini modernizatsiyalash hozirgi davrda dolzarbligicha qolmoqda. Buning isboti sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2023-yil 8-maydagi "Yangilangan Konstitutsiyamiz Uchinchi renessansni barpo etish yo'lida mustahkam huquqiy poydevor bo'lib xizmat qiladi" *Oliy Majlis palatalari a'zolari, siyosiy partiyalar va jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvdagi nutqlarida*: "Yoshlar siyosatini, ta'lim-tarbiya, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarini rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida yuqori bosqichga ko'tarish bo'yicha ham yangi imkoniyatlarni safarbar etamiz. Nuroniylar, yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan insonlar, alohida e'tiborga muhtoj aholi qatlamiga ijtimoiy xizmatlar ko'lamini yanada